



HISTORICAL REALITIES AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS DISCIPLINES

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**TASHKENT, SEPTEMBER
20, 2025**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATION OF REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

**RESEARCH CENTER FOR THE STUDY OF EASTERN
CULTURE AND HERITAGE**

**HISTORICAL REALITIES
AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS
DISCIPLINES**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Tashkent, September 20, 2025

O'ZBEKISTON VA XITOIY O'RTASIDA YANGI DAVRDA KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI

Javlon Abdazimov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Xitoy, strategik sheriklik, Ipak yo'li, savdo-iqtisodiy hamkorlik, diplomatik munosabatlar, xalqaro integratsiya, mintaqaviy xavfsizlik, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston va Xitoy o'rtasida yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Tarixiy aloqalar, qadimiy Ipak yo'li davridan boshlab madaniy va iqtisodiy muloqotlarning rivojlanishi, mustaqillikdan so'ng ikki tomonlama diplomatik aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilgani ko'rsatib beriladi. Xitoyning global siyosiy va iqtisodiy kuch sifatidagi o'rni hamda O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlari o'zaro hamkorlikni chuqurlashtiruvchi omil sifatida yoritiladi.

THE FORMATION OF COMPREHENSIVE STRATEGIC PARTNERSHIP RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA IN THE NEW ERA

Javlon Abdazimov

Senior Lecturer, PhD, Tashkent State University of Oriental Studies

Key words: Uzbekistan, China, strategic partnership, Silk Road, trade and economic cooperation, diplomatic relations, international integration, regional security, "Uzbekistan–2030" strategy.

Abstract: The article analyzes the development of comprehensive strategic partnership relations between Uzbekistan and China in the new era. It highlights historical ties, beginning from the Silk Road period, when cultural and economic exchanges flourished, and examines the rise of bilateral diplomatic relations to a new stage after Uzbekistan's independence. The study emphasizes China's role as a global political and economic power and Uzbekistan's reforms within the framework of the "New Uzbekistan" concept as key drivers of closer cooperation.

KIRISH

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar ko'p ming yillik sivilizatsion muloqot yo'lini bosib o'tgan. 1992-yil 2-yanvarda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan, ikki davlat o'rtasidagi muloqot

doimiy sur'atda rivojlanib kelmoqda. Bu aloqalarning asosiy xususiyati tarixiy tajribani hamda zamonaviy siyosiy va xalqaro-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini qamrab oladi.

Ma'lumki, dunyoda hududi, resurslari, aholi soni jihatidan, harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudrati bo'yicha turli xil davlatlar mavjud. Bugungi kunga kelib davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni siyosatshunoslik, iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy fanlarda tipologiyasi, mezonlari va hokazo masalasi yaqin davrdan boshlab o'rganilmoqda, jumladan, ularning o'zaro hamkorligi va dunyodagi o'rnini aniqlash ham bugunga kelib rivojlanmoqda.

Katta va kichik davlatlar, ayniqsa qo'shni va umumiy chegaraga ega hamkorlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bugun nihoyatda muhim masalaga aylangan desa bo'ladi. Chunki ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda eng asosiy mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar va xavf-xatarlar mo'ljali aniqlashga, asosiy jarayonlar va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga, shuningdek, bu munosabatlarning mintaqaviy jarayonlarga ta'sir darajasini aniqlashga imkon asosiy maqsadga aylanmoqda.

So'nggi yillarda Xitoy Xalq Respublikasi qudratli jahon davlatiga aylandi, ulkan ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyotga erishdi. Mamlakat butunlay yangi qiyofaga kirib, xalqning farovonligi o'sib bormoqda, bu jarayonlar Xitoyning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

Bugungi kunda Xitoy global siyosat va boshqaruvda o'zining mustahkam siyosatini namoyish etib, muhim xalqaro jarayonlarda mas'uliyatli ishtirokchi sifatida faol qatnashmoqda.

O'zbekiston, Xitoyning erishayotgan bu yutuqlaridan mamnun ekanligini davlat rahbarlari bir necha marotaba ta'kidlab kelishmoqda, shuningdek, xalqlarning do'stona munosabatlari, yaxshi qo'shichilik va har tomonlama strategik sheriklik namoyishi sifatida doimiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqi va Xitoy xalqi turli jabhalarda o'zaro o'xshash madaniyatlarga va qadriyatlarga egadir. Tarixiy aloqalarning eng yorqin misoli qadimiy Ipak yo'li davrlariga borib taqalishi barchaga ma'lum, bu yo'l orqali mintaqa davlatlarining balki umumiy dunyo savdosining muhim qismi amalga oshirilgan. Shu nuqtai nazardan ikki davlat munosabatlarining shakllanishi keng qamrovli qadimiy aloqalarning ildizlariga borib taqaladi.

ASOSIY QISM

Tarixchilarning tadqiqotlariga ko'ra, Tang sulolasi davrida Xitoyning Samarqand, Buxoro va boshqa yirik shaharlar bilan

gumanitar almashinuvi gullab-yashnagan. San'at, moda, milliy oshxona va boshqa madaniy almashinuv vositalari Xitoy poytaxti va viloyatlarida ommalashgan. Ko'p asrlik madaniy va tarixiy aloqalarga asoslangan o'zaro hurmat va ishonch, shuningdek, mentalitet yaqinligi va mustahkam do'stlik bugun bizning har tomonlama va keng ko'lamli hamkorligi uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Xitoyda aytiladi: "Yuragi bir bo'lgan aka-ukalar temirni ham eritadi." O'zbekistonda esa shunday maqol bor: "Aka-ukalar bir bo'lsa, minishga ot topiladi."

So'nggi 30 yil ichida oliy darajadagi ishonchli muloqot, davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari natijasida mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik yanada kengaydi va yangi tarixiy bosqichga chiqdi.¹

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin "Xitoy-O'zbekiston munosabatlarining porloq kelajagi yo'lida birgalikda harakat qilamiz" sarlavhali maqolasida ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning asosiy nuqtalariga alohida to'xtalib, Xitoy ham, O'zbekiston ham qadimiy sivilizatsiyalar bo'lib, Ipak yo'li aloqalari rivojida so'nggi 2000 yilda va undan ko'proq vaqt davomida ikki xalq o'rtasidagi do'stona munosabatlarning guvohi bo'lib kelgan.

Xitoydan bir qancha tarixiy shaxslar O'zbekistonga tashrif buyurish uchun g'arbga sayohat qilganlar, jumladan, G'arbiy Xan sulolasidan Chjan Syan (miloddan avvalgi 206–24), Tan sulolasidan Xuen Kan (618–907), Min sulolasidan Chen Cheng (1368–1644), Toshkent, Samarqand, Navoiy kabi mashhur shaharlarda o'z izlarini qoldirgan. Yuan sulolasi davrida (1271–1368) asli buxorolik davlat arbobi Sayid Adjall Shamsiddin Xitoyning Yunnan viloyati hokimi lavozimida ishlagan. XIV asr asli samarqandlik mashhur astronomiya va taqvim bo'yicha olim U Chju Nankinda rasadxona qurishga yordam beradi. Bu insonlar Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlovchi bo'lgan va ular haqidagi hikoyatlar hozirgacha har ikki davlatda keng aytiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning geosiyosiy markazida joylashgan eng yirik davlatdir. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston milliy taraqqiyot va tiklanishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. So'nggi yillarda, ayniqsa, Prezident Sh.Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekiston xalqi "Yangi O'zbekiston" sari yangi yo'lga tushdi. Turli sohalaridagi islohot va taraqqiyot jadallashdi. Mamlakat yangi qiyofa kasb etmoqdi, xalqi

¹ Uzbekistan and China: millennia-long friendship and cooperation By Shavkat Mirziyoyev. <https://en.people.cn/n3/2024/0122/c90000-20124761.html>

farovon hayot kechirmoqda, xalqaro miqyosdagi nufuzi sezilarli darajada oshdi. Xitoy do'st qo'shni va har tomonlama strategik sherik sifatida O'zbekistondan chin dildan xursand¹.

Bu yil Xitoy va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 33 yil to'ldi. O'tgan o'ttiz uch yillikda munosabatlarning ulkan daraxti chuqur ildiz otib, yanada gullab-yashnadi. Ikki davlat o'zaro yaxshi qo'shnichilikni saqlab, hamjihatlikni mustahkamlashga va o'zaro manfaatli bo'lishga intilmoqdi. Barcha sohalardagi hamkorlik aniq samaralarini bermoqda.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasida munosabatlarning yana bir o'xshash jihatlarini ikki davlat ham xalq farovonligini ta'minlashga bor kuch imkoniyatlarini safarbar etishga jalb qilib, qolaversa ularni amalga oshirishda ham davlatning o'zi bosh islohatchi sifatida namoyish bo'lishi bilan ajralib turadi. Global siyosiy muhitdagi beqaror muvozanatlardan ko'rinadiki tashqi siyosat masalasida ham O'zbekiston va Xitoy rahbarlari o'zining tashqi siyosat maqsadlarini ham mushtaraklashtirganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda globallashuvning o'ta qaltis bir davrga yetib kelganini hisobga olgan holda barcha davlatlarning suverenligi, tenghuquqliligi, tinch-totuv yashash kabi asosiy tamoyillarini yuksak darajada ta'minlashga alohida diqqat qaratilmoqda.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalar uzoq yillar davomida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan aloqalarni yo'lga qo'yib kelayotganini kuzatish mumkin. 2016-yildan so'ng esa ushbu tendensiyalar tubdan yangilanib aloqalarning kuchayishiga olib keldi. 2023-yilda Xitoy O'zbekistonning asosiy savdo sherigiga aylangan bo'lsa, 2024-yil yakuni bo'yicha Xitoy bilan savdo iqtisodiy munosabatlar hajmi 14 mlrd AQSH dollarlik marrani zabt etginida chuqur ramziy mano mujassamdir.

O'zbekistonning yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining jadal rivojlantirishga hayrihoh ekanligida ham alohida mazmun kasb etgan holda, uni davlatning rasmiy qonunlarida ham mustahkamlagani muhimdir. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangandek "Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish va unda Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini

¹ http://english.scio.gov.cn/topnews/2022-09/14/content_78418739.htm

inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqur-lashtirish¹ vazifasiga alohida urg'u berilgan.

Ushbu vazifalarning asosiy markazida albatta Xitoy bilan muloqotlarni rivojlantirish kasb etadi. Natijada O'zbekiston Xitoy o'zaro hamkorlikning tomonlama imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2022-yil 15-sentyabrda yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik aloqalari rasmiy bitimlar orqali o'rnatildi. 1991-yildan buyon ikki davlat rahbarlari ishtirokida 21 ta sammit bo'lib o'tgani o'zaro hamkorlikning mustahkam va istiqbolli ekanidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy o'rtasida jami 283 ta hujjat, jumladan: 113 ta davlatlararo va hukumatlararo xalqaro shartnomalar, 82 ta idoralararo va 88 ta boshqa turdagi hujjatlarning imzolangani ham rishtaning tobora mustahkam bo'lib borayotganini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-13 may kunlari Xitoyga davlat tashrifi bilan borgani hamkorlik masalalarini yanada yuqori bosqichga ko'targan bo'lsa, O'zbekiston va Xitoy rahbari 2023-2027 yillarga mo'ljallangan ikki davlat o'rtasida yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturini qabul qilinishi hamda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin qo'shma bayonotni imzoladi va 2023-2027 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston bilan XXR o'rtasida yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturini qabul qilishi o'zaro manfaatli hamkorlikning noyob ko'p bosqichli tizimi shakllangan².

Ta'kidlash joizki O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning faqat ikki tomonlama munosabatlar shakligina emas balki turli platformalarda ham mustahkam ekanligini kuzatish mumkin, xususan, "Markaziy Osiyo + Xitoy" formatida rivojlanishini kuzatish mumkin, bunda O'zbekiston Xitoy bilan mintaqada uzoq muddatli va o'zaro manfaatli loyihalarni birgalikda amalga oshirish tarafdori bo'lib, bu esa ishtirokchi barcha mamlakatlarning milliy manfaatlariga to'la javob berishi bilan ajralib turadi. Davlatlarning mustahkam barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishinishi, mintaqa davlatlarining jahon iqtisodiy tizimi va transport-logistika yo'laklariga integratsiyalashuvini ta'minlashga katta xizmat qiladi. Xitoy bilan mintaqaning umumiy savdo munosabatlari hajmi ham ortib, 2022-yilga kelib, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi 1990-yillar boshidan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

² https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-xitoy-ozaro-hamkorlik-har-tomonlama-imkoniyatlar-eshigini-ochadi_561431

buyon 100 barobardan ortiq o'sganini kuzatish mumkin. 2022-yil oxirida Xitoy mintaqa mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmini 70,2 milliard dollarga yetkazdi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining shakllanishining asosiy mazmuni xalqaro hamkorlikning yangi modelini shakllantirishga qaratilib, ikki davlat ishtirokidagi mavjud hamkorlik mexanizmlarini va tuzilmalarini mustahkamlash orqali rivojlantirishga qaratilgan. Yuqori texnologik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishda "sanoat ipotekasi" modelini ishga tushirish, bunda yer va ishlab chiqarishni "tayyor biznes" shaklida investorlarga moslashtirish kabi ustuvor vazifalarni ham qamrob olishi bilan diqqatga sazovardir.

Bundan tashqari, sheriklining ko'lami jihatdan barcha sohalarni qamrab olgani bilan muhimdir, misol qishloq xo'jaligini barqaror yuritishda Xitoyning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish hamda yerlarni qayta tiklash va tuzga chidamli o'simliklarni ekish bo'yicha ilmiy yondashuvlarini joriy qilish yo'nalishida hamkorlikni aytish mumkin.

Davlatlararo "yashil" energetikada strategik sheriklikni yanada kuchaytirish va bunda Xitoy kompaniyalarining korxonalarni xususilashtirish dasturlarida ishtirok etishi ham muhim yo'nalishlar sifatida qayd etish kerak. Ikki davlat ishbilarmonlariga qulaylik yaratish maqsadida tayyor investitsiyalar loyihalar portfelini shakllantirish, infratuzilma va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini kengaytirish orqali xitoylik ishbilarmonlar bilan kelishuvlarga erishilgani qayd etish lozim.

Ikki davlat hamkorligining yana bir yakdil pozitsiyasi Afg'onistonda tinchlik jarayoniga va iqtisodiy tiklanishga ko'maklashish borasidagi sa'y-harakatlarida ko'rinadi, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, "Markaziy Osiyo - Xitoy" mexanizmi doirasida ushbu masalaga ham tizimli hamkorlikni davom ettirish muhim ekani doimo diqqat markazida.

Strategik hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Xitoy hukumatlararo qo'mitasi faoliyati ikki tomonlama iqtisodiy sheriklikni chuqurlashtirish va kengaytirishga samarali xizmat qilmoqda. 2023-yilda mazkur qo'mita tarkibida ijtimoiy sohadagi ikki tomonlama hamkorlikning yana bir vositasi sifatida - kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kichik qo'mita tashkil etildi. U kambag'allikni qisqartirish va barqaror tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni muhokama qilish va muvofiqlashtirish uchun

platforma bo'lib, Xitoy tajribasini almashish va O'zbekiston hududlarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston va Xitoy hududlararo hamkorligi ham yangi sur'at kasb etmoqda. 2024-yil 22-yanvar kuni Urumchi shahrida O'zbekiston va Xitoyning birinchi hududlararo forumi bo'lib o'tdi. Forumda ikki mamlakat ishbilarmon doiralari, hududiy hokimiyat va sanoat tashkilotlarining 1200 dan ortiq vakillari ishtirok etdi. Tadbir doirasida V2V va G2B shaklidagi muzokaralari, shuningdek, O'zbekiston eksportchilarining mahsulotlari namoyish etilgan "Made in Uzbekistan" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Forum yakunlari bo'yicha hududlar o'rtasida 27 ga yaqin hujjat imzolandi hamda ko'rgazma 30 ga yaqin shartnoma va bitimlar tuzish uchun muhim maydonga aylandi.

Ikkinchi hududlararo forum 2025 yil 1-2 iyun kunlari Samarqanddagi "Silk Road Samarkand" xalqaro sayyohlik majmuasida bo'lib o'tdi. Unda har ikki tomondan ishbilarmon doiralar, viloyat va markaziy hokimiyat organlari, fan va ta'lim sohalarining 2,8 mingdan ortiq vakillari ishtirok etdi¹.

Ikki davlat O'zbekiston va Xitoy barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalarini doimiy muloqot mavzusi sifatida qaraydi. Bunga joriy yilning 2-sentabr kuni Xitoyga rasmiy tashrif doirasida Pekin shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning rasmiy delegatsiyalar a'zolari ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tganida kuzatish mumkin.

Unda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti XXR Raisi Si Szinpinning global boshqaruv bo'yicha tashabbusi o'z vaqtida ilgari surilgani va dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, o'tgan yillar davomida ikki tomonlama munosabatlar rivojida katta yutuqlarga erishilganini ta'kidlandi. Barcha darajalardagi aloqalar sur'ati oshib borayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, muhim masalalar yuzasidan tomonlar bir-birini qo'llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etilib, O'zbekistonning "Yagona Xitoy" siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda "uch yovuz kuch" - terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashish masalalarida pozitsiyasi o'zgarmas ekani tasdiqlandi².

¹ <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7726-o-zbekiston-xitoy-yangi-imkoniyatlar-yo-lidagi-salohiyatlar-sinergiyasi.html>

² <https://president.uz/oz/lists/view/8452>

2025-yil boshidan 9 oy davrda ikki davlatning savdo aylanmasi 23 foizga o'sgani qayd etish lozim. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zaro yetkazib berish orqali bu ko'rsatkichni 20 milliardga yetkazish istiqboldagi asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Hududlararo almashinuvlar faollashgani ham qayd etish lozim. Xitoy tajribasi asosida mamlakatimizda kambag'allikka barham berishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni amalga oshirishda ekspertlik ko'magi sermahsul kechmoqda. Innovatsion loyihalarni ilgari surish va mutaxassislar tayyorlash uchun ikki mamlakat sun'iy intellektni rivojlantirish markazlarini tashkil etish taklif maqullandi.

"Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston" strategik temir yo'li qurilishining amaliy bosqichi boshlangani mintaqadagi aloqalarni yanada mustahkamlashga katta turtki berib uni kelgusida janub tarmog'i Afg'onistonga ulash kabi strategik maqsadlar ko'zlangan.

Ilm-fan, tibbiyot, ta'lim va turizm sohalaridagi sheriklikni kengaytirish masalalari ham kelishilgan unda mamlakatimizda Shimoli-g'arbiy qishloq va o'rmon universitetining filiali hamda Xalqaro matematika markazi ochilishi kelishilgan. Sian neft universiteti filialini ochish to'g'risida Bitim ham imzolanib, kelgusida Pekin texnologiya instituti filialini ochish rejalashtirilgan.

Joriy yil yakuniga qadar O'zbekistonda ikkinchi Ta'lim forumi o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, Xitoy tilini o'rganishni kengaytirish va o'zbekistonlik yoshlarini o'qitish uchun kvotalarni ko'paytirish, Konfutsiy institutlari faoliyatini rivojlantirish qo'llab-quvvatlanishi qayd etish lozim.

Takidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarida energetika, mashinasozlik, sun'iy intellekt, tibbiyot, qishloq xo'jaligi sohaları uchun mutaxassislar tayyorlaydigan O'zbekiston-Xitoy "Lu Ban ustaxonalari"ni tashkil etish ham ko'zda tutilib katta o'zgarishlar boshlab yuborilgan.

Joriy yil 1-iyundan esa ikki mamlakat o'rtasida vizasiz tartib joriy etilib, natijda sayyohlar almashinuvi o'sishi uchun sharoit yaratish aviaqatnovlar soni oshirish maqsad qilindi. 2027-yilda Shanxay va Pekinda san'at ko'rgazmalarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa sifatida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining shakllanishining asosiy mazmuni xalqaro hamkorlikning yangi modelini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT, "Markaziy Osiyo – Xitoy" formati va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasidagi

muvofiglashuv va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi ustuvor maqsad sifatida belgilab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzbekistan and China: millennia-long friendship and cooperation By Shavkat Mirziyoyev. <https://en.people.cn/n3/2024/0122/c90000-20124761.html>
2. http://english.scio.gov.cn/topnews/2022-09/14/content_78418739.htm
3. Allabergenov, M., Mustafaeva, S., Ziyamukhamedov, J., Yusupov, S., Khalimova, F., Madrahimova, G., ... & Sattorova, Z. (2024). Intelligent Educational Environments and Ubiquitous Computing for Continuous Learning and Digital Literacy Development. J. Wirel. Mob. Networks Ubiquitous Comput. Dependable Appl., 15(4), 179-191.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
5. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-xitoy-ozaro-hamkorlik-har-tomonlama-imkoniyatlar-eshigini-ochadi_561431
6. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7726-o-zbekiston-xitoy-yangi-imkoniyatlar-yo-lidagi-salohiyatlar-sinergiyasi.html>
7. <https://president.uz/oz/lists/view/8452>